

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING  
IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING  
INNOVATSION USULLARI

*Eshmamatova Hayitgul Nazirqul qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

*E-mail: [Eshmamatovahayitgul03@gmail.com](mailto:Eshmamatovahayitgul03@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarning ijtimoiy kompetentligini, qobiliyatlarini oshirishning innovatsion usullari keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiylashuv, innovatsion g'oyalar, kreativ, kommunikativ, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, qobiliyat, rivojlanish, muhit.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются инновационные методы развития социальной компетентности и способностей детей, обучающихся в дошкольной образовательной организации.

**Ключевые слова:** социализация, инновационные идеи, креативность, коммуникативные способности, дошкольное образование, воспитатель, педагог, способности, развитие, среда.

**Abstract:** This article extensively discusses innovative methods for improving the social competence and abilities of children receiving education in a preschool educational organization.

**Key words:** Socialization, innovative ideas, Creative, communicative, preschool education, educator, educator, ability, development, environment.

**KIRISH:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 9-sentabrdagi

PQ3261-son va “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorlariga asosan, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Jahon miqyosida bola shaxsining xavfsiz muhitda rivojlanishini ta’minlash mamlakatda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning sharti sifatida qaralmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “ijtimoiy institutlarning ta’limiy, madaniy va ma’rifiy salohiyatini rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish”[1] dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Jumldan, xorijiy davlatlar ilg‘or tajribasining tahlili zamonaviy MTTlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma’naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilganligi hamda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish[2] zarurligiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma’lumki, 2019-yilda butun dunyoda Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 30 yilligi nishonlandi.

Konvensiya inson huquqlari bo‘yicha eng keng ko‘lamda ratifikatsiya qilingan xalqaro bitim bo‘lib, u jahon miqyosida bolalarga nisbatan qarashlarni va munosabatlarni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Konvensiyaga muvofiq, bolalar nafaqat passiv g‘amxo‘rlik ob‘yekt sifatida, balki maxsus huquqlar to‘plamiga ega shaxslar sifatida qaraladi. 1994-yildan beri, Konvensiyada ishtirok etuvchi davlat sifatida, O‘zbekiston barcha bolalar huquqlarini, shu jumladan omon qolish, ta’lim olish, qadr-qimmatga ega bo‘lish, shuningdek, zo‘ravonlik va kamsitilishning har qanday shakllaridan himoya qilinish bo‘yicha huquqlarini ta’minlashni o‘z zimmasiga oldi. O‘zbekiston hukumati keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni boshlab

yubordi va bolalar huquqlarini ilgari surish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bunday sa'y-harakatlarning barchasi mamlakatdagi bolalar va ayollarning vaziyatini xar tomonlama ko'rib chiqishga va tahlilga asoslangan bo'lishi zarurligini e'tirof etish tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, eng muhim ustuvor yo'nalishlarni, shuningdek, O'zbekistonda bolalar huquqlarini yanada ilgari surish yo'lida yangi paydo bo'layotgan muammolarni aniqlash uchun, O'zbekistondagi bolalarning vaziyatini kompleks tahlil qilish ishlari amalga oshirildi. Tahlil natijalari UNISEFning «O'zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili»[3] nomli ma'lumotnomada chop etildi. Ushbu hujjat 2030 yilgacha bo'lgan Milliy strategiyani ishlab chiqishga ham hissa qo'shadi va ko'mak beradi. Bu esa, 2030 yilgacha mo'ljallangan kun tartibining "Hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyiliga asoslanishi hamda inson kapitalini rivojlantirish va bolalar farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan va sarmoyalar kiritgan holda, O'zbekistonni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish sari yetaklashga xizmat qiladi.

Xorij olimlaridan I.S.Kon, A.V.Mudrik, V.S.Muxina, A.V.Petrovskiy va boshqa olimlar bolalarning ijtimoiylashuvi bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Ularning fikricha, bola ijtimoiylashuvi oiladan boshlanadi. J.Piaje bola ijtimoiylashuvining muhim davrlarini ko'rsatib o'tadi, uning fikricha, "shaxsning bilish faoliyati kognitiv jarayonlar orqali yuz bergani uchun bolaning ijtimoiylashuvi jamiyat talablariga moslashadi, yangi tajribalar orqali muvozanatlashadi" [4]. "Bolalarda xulq-atvorni shakllanishi jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini ongli ravishda bajarish ularni ijtimoiylashuv darajalaridagi zarur mezonlardan biri" - deb hisoblaydi yunon faylasufi Platon [4]. Amerikalik sotsiolog Margaret Midning ta'kidlashicha, bolalarni ijtimoiylashuvi turlicha madaniy ko'nikmalar hamda an'analarga tayangan jamiyatda amalga oshadi [5].

Bola maktabgacha yoshda o'zi va atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish haqida ko'p narsalarni bilib oladi. Bolalik - bu kelajakdagi hayotga tayyorgarlik emas, balki haqiqiy, yorqin, o'ziga xos, noyob hayot inson hayotining eng muhim

davri! Va bolalik qanday o'tganidan, bolaligida bolani qo'li bilan boshqarganidan, uning ongi va qalbiga atrofdagi dunyodan nima kirganligi, bu bugungi chaqaloq qanday inson bo'lishiga bog'liq. Maktabgacha davr bolaning dunyoga kirishi uchun juda muhimdir ijtimoiy munosabatlar, jarayon uchun ijtimoiylashuv, bu L. S. Vygotskiyning fikriga ko'ra «Insoniyat madaniyatiga aylanish». «Kompetentlik» (inglizcha: “competence” “qobiliyat”) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Xar bir pedagog faoliyati davomida olib boradigan ishlarini tartibga solish loyihalash, xamda loyihalash madaniyatiga e'tibor qaratish kerak. «Pedagogning loyihalash madaniyati»: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi talabalarini loyihaviy faoliyatga doir bilimlarini takomillashtirish, pedagogik loyihalash bosqichlari va shakllarini o'zlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

KOMPETENTLIK – ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy komponentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo'llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko'nikmalarning, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Quyida kompetentlik sifatlari keltirilib o'tilgan:

- Shaxsiy kompetentlik
- Texnologik kompetentlik
- Ekstremal kompetentlik

Maxsus kompetentlik - kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy - pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi.

- a) Psixologik kompetentlik
- b) Metodik kompetentlik
- c) Informatsion kompetentlik
- d) Kreativ kompetentlik
- e) innovatsion kompetentlik
- f) Kommunikativ kompetentlik

Ijtimoiy taraqqiyot - bu ijtimoiylashuvning yagona jarayoni - individualizatsiya. Bola uch yoshga to'lganda uning atrofida qilarga munosabati hamda qiziquvchanligi kuchayadi. Shuningdek, bolalarning o'rtolari bilan birgalikda faoliyatga kirishishga moyilligi oshadi. Bu jarayonda ular hamma ham aynan ular kabi o'ylamasligini va ularning har bir o'yindoshining o'ziga xos fazilatlari borligini, ba'zilar jozibali, ba'zilar esa yo'qligini tushunishadi. 3 yoshga to'lgan bolalarning ba'zi bolalarga qarab intilganini va ular bilan do'stlik rishtalarini rivojlantira boshlaganini ko'ramiz. Bunday do'stliklarni yaratishda, bolalar o'zlarining har birida o'ziga xos fazilatlarga ega ekanligini bilib olishadi, bu esa ularda yoqimli hislarni his qilishi, ya'ni o'z-o'zini hurmat qilish uchun muhim turtki beradigan holat kuzatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning nutqi va tafakkuri faol rivojlanmoqda. Bolaning shaxsiyatining rivojlanishi turli xil faoliyatlarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda eng samarali hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi .

Ijtimoiylashuv - bu o'quvchining jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida etakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash Ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq.

**XULOSA.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish – bu hozirgi ta'lim siyosati va pedagogik amaliyot uchun juda muhim yo'nalishdir. Bolaning muloqot qilish, boshqalar bilan hamkorlik qilish, empatiya va ijtimoiy qoidalarga rioya qilish kabi ko'nikmalari nafaqat maktabga tayyorgarlik jihatdan, balki hayot davomida samarali ijtimoiy aloqalarda bo'lishi uchun ham poydevor vazifasini o'taydi.

Innovatsion usullar — masalan, o'yin-asoslilik (play-based learning), loyiha usullari (project-based learning), rol o'yinlari (role-play), san'at terapiyasi, interaktiv va raqamli texnologiyalar — bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qilmoqda. Misol uchun, bir tadqiqotda o'yin asosida tashkil etilgan interaktiv ta'lim o'yinlari orqali bolalarning muloqot va hamkorlik qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanganligi aniqlangan. Shuningdek, loyiha usullari va rol o'yinlari yordamida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish erishilgan natijalarga ko'ra, bolalarning ijtimoiy qo'rqinch (anxiety-detachment) darajasi kamaygan, hamkorlik va muloqot ko'nikmalari oshganligi ko'rsatilgan. Undan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagoglarning innovatsion pedagogik metodologiyalar bilan tayyorlanganligi va ularni amalda qo'llashi ham ijtimoiy kompetentligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, muhitni (ta'lim muhitini) rivojlantirish va yaratuvchi faoliyatga yo'naltirilgan metodlarni joriy etish bolalarning ijtimoiy-emosional rivojlanishiga ijobiy ta'sir

ko'rsatishi ma'lum. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy kompetentligini oshirish maqsadida pedagogik jarayonlarni metodik jihatdan yangilash, faol o'yin, loyiha va texnologik yondashuvlarni joriy etish, pedagoglarni malakasini oshirish, hamda ihtiyojga mos rivojlantiruvchi muhit yaratish zarur. Bu bolalarning nafaqat maktabga tayyorgarligi, balki jamiyatda mustahkam ijtimoiy aloqalar o'rnatishlari, mustaqil va ijobiy munosabatlar bilan yashashlari uchun ham muhim rol o'ynaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26 P.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmoni.
3. O'zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili. BMTning Bolalar fondi tomonidan nashr etilgan ma'lumotnoma. UNISEF 2020 y. Toshkent. O'zbekiston. E-mail: tashkent@unicef.org website: www.unicef.uz
4. Piaje J .Psixologiya intellekta Piter. 2003 -192 s.
5. Vigotskiy L.C. Voprosi detskoy psixologii –SPB.:
6. Mid.M.Kultura i mir detstvo. –M.: Nauka, 1988, 57 s.
7. Karimova V., Akramova F. va boshqalar. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma. –T.:TDPU.-2011y.–154b.
8. Khayitboboyevich, A. D. (2025). Pedagogical possibilities of organizing music listening activities of future music teachers. *International Journal of Pedagogics*, 5(02), 56-59.
9. Khayitboboyevich, A. D. (2025). Development of Professional Competence of Future Music Teachers on The Basis of Music Listening Activity. *European International Journal of Pedagogics*, 5(02), 34-37.